

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TADQIQ ETISHDA LINGVOPRAGMATIK YONDASHUV²⁶

Muzaffarova Farangiz Jo‘raxon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: muzaffarova.farangiz@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5324-4162

ANNOTATSIYA

Maqola frazeologik birliklarni lingvopragmatik yondashuv asosida o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning muloqot jarayonidagi funksional-kommunikativ xususiyatlarini aniqlashni maqsad qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologik birliklarning pragmatik potentsiali, milliy-madaniy va baholovchi jihatlarini tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun frazeologik birliklarning nutq aktlaridagi qo‘llanilishi, kontekstga bog‘liq ma‘no o‘zgarishlari, kommunikativ vaziyat bilan aloqadorligi hamda tillararo ekvivalentlik va nomuvofiqlik masalalari tadqiq etildi. Tadqiqotning asosiy muammosi frazeologik birliklarning faqat strukturaviy-semantik jihatdan emas, balki real nutq jarayonidagi pragmatik funksiyalari yetarli darajada yoritilmaganligidadir. Shu bois frazeologik birliklarni antroposentrik, funksional, kontekstual va lingvokulturologik tamoyillar asosida o‘rganish zarurati asoslab berildi. Tadqiqot jarayonida lingvopragmatik tahlil, diskurs tahlili, qiyosiy-tipologik tahlil, semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida frazeologik birliklarning yuqori pragmatik potentsialga ega ekanligi, ular orqali so‘zlovchining emotsional holati, bahosi va kommunikativ maqsadi ifodalanishi aniqlandi. Shuningdek, zoonim komponentli frazeologik birliklarda milliy va universal stereotiplar tizimi shakllanishi hamda ularning lingvomadaniy ahamiyati asoslab berildi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, lingvopragmatik yondashuv frazeologik birliklarning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o‘rganish imkonini beradi hamda tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO‘ZLAR

Frazeologik birlik, lingvopragmatika, nutq aktlari, pragmatik potentsial, zoonim komponent, stereotip, ekvivalentlik, nomuvofiqlik.

Received: January 06, 2026

Accepted: March 19, 2026

Available online: May 10, 2026

²⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Muzaffarova F. Frazeologik birliklarni tadqiq etishda lingvopragmatik yondashuv. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 196-208.

**THE LINGUOPRAGMATIC APPROACH TO THE
INVESTIGATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS****Muzaffarova Farangiz Jo‘raxon qizi***PhD student of Uzbekistan state world languages university**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: muzaffarova.farangiz@mail.ru**ORCID ID: 0000-0001-5324-4162*

ABSTRACT

The article is devoted to the study of phraseological units on the basis of a linguopragmatic approach and aims to identify their functional and communicative characteristics in the process of communication. The main objective of the research is to analyze the pragmatic potential, national-cultural, and evaluative aspects of phraseological units. To achieve this objective, the use of phraseological units in speech acts, context-dependent semantic shifts, their correlation with the communicative situation, as well as issues of interlingual equivalence and non-equivalence were examined. The central problem of the study lies in the fact that phraseological units have not been sufficiently described not only from a structural-semantic perspective but also in terms of their pragmatic functions in real speech processes. Therefore, the necessity of studying phraseological units on the basis of anthropocentric, functional, contextual, and linguocultural principles is substantiated. The research employs methods of linguopragmatic analysis, discourse analysis, comparative-typological analysis, as well as semantic and contextual analysis. The results of the study demonstrate that phraseological units possess a high pragmatic potential and are capable of expressing the speaker's emotional state, evaluative attitude, and communicative intention. In addition, the formation of a system of national and universal stereotypes in phraseological units with a zoonymic component is substantiated, along with their linguocultural significance. In conclusion, it can be stated that the linguopragmatic approach enables a comprehensive investigation of both the theoretical and practical aspects of phraseological units and has significant scholarly value for translation theory and practice.

KEY WORDS

Phraseological unit, linguopragmatics, speech acts, pragmatic potential, zoonymic component, stereotype, equivalence, non-equivalence.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ИССЛЕДОВАНИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Музаффарова Фарангиз Журахон кизи
*Докторант Узбекского государственного
университета мировых языков,
Ташкент, Узбекистан*
E-mail: muzaffarova.farangiz@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-5324-4162

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению фразеологических единиц на основе лингвопрагматического подхода и направлена на выявление их функционально-коммуникативных характеристик в процессе общения. Основная цель исследования заключается в анализе прагматического потенциала, национально-культурных и оценочных аспектов фразеологических единиц. Для достижения данной цели были исследованы особенности употребления фразеологических единиц в речевых актах, контекстно обусловленные изменения значения, их связь с коммуникативной ситуацией, а также вопросы межъязыковой эквивалентности и несоответствия. Основная проблема исследования состоит в том, что фразеологические единицы до настоящего времени недостаточно освещены не только в структурно-семантическом плане, но и с точки зрения их прагматических функций в реальном речевом процессе. В связи с этим обоснована необходимость изучения фразеологических единиц на основе антропоцентрических, функциональных, контекстуальных и лингвокультурологических принципов. В ходе исследования были использованы методы лингвопрагматического анализа, дискурсивного анализа, сопоставительно-типологического анализа, а также семантического и контекстуального анализа. В результате было установлено, что фразеологические единицы обладают высоким прагматическим потенциалом и способны выражать эмоциональное состояние говорящего, его оценку и коммуникативную цель. Кроме того, было обосновано формирование системы национальных и универсальных стереотипов во фразеологических единицах с зоонимическим компонентом, а также их лингвокультурная значимость. В заключение можно отметить, что лингвопрагматический подход позволяет комплексно исследовать теоретические и практические аспекты фразеологических единиц и имеет важное научное значение для теории и практики перевода.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Фразеологическая единица, лингвопрагматика, речевые акты, прагматический потенциал, зоонимический компонент, стереотип, эквивалентность, несоответствие.

KIRISH

Tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu birliklar xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlarini o'zida aks ettiradi. Frazeologik birliklar tilda alohida o'ringa ega bo'lgan, turg'un, ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'z birikmalaridir. Ushbu birliklarni tadqiq etishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, lingvopragmatik yondashuv ulardan biridir.

Lingvopragmatik yondashuv frazeologik birliklarni muloqot jarayonida qo'llanilishi, ularning muloqot maqsadi va vaziyatiga bog'liqligi, so'zlovchining niyati va tinglovchiga ta'sirini o'rganadi. Bu yondashuv frazeologik birliklarni nazariy jihatdan o'rganish bilangina cheklanmay, ularning amaliy qo'llanilishini ham tahlil qiladi.

Lingvopragmatika tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo'lib, til birliklarining muloqot jarayonidagi qo'llanilishi va ularning muloqot ishtirokchilariga ta'sirini o'rganadi. Pragmatika atamasini birinchi bo'lib amerikalik faylasuf Ch. Morris XX asrning 30-yillarida fanga kiritgan. Uning fikricha, pragmatika belgilar va ulardan foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. (Morris Ch., 1938, 6)

O'zbek tilshunosligida lingvopragmatika masalalari Sh. Safarov, M. Hakimov, N. Mahmudov, D. Lutfullayeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Sh. Safarov pragmalingvistikaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, uning "Pragmalingvistika" monografiyasida pragmatikaning dolzarb masalalari yoritilgan. (Safarov Sh., 2008, 28)

ASOSIY QISM

Frazeologik birliklarni lingvopragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. **Antroposentrik tamoyil.** Bu tamoyil frazeologik birliklarni insonga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi. Ya'ni, frazeologik birliklar insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va tajribasini aks ettiradi.
2. **Funksional tamoyil.** Bu tamoyil frazeologik birliklarning muloqot jarayonidagi vazifalarini o'rganishga qaratilgan. Frazeologik birliklar muloqot jarayonida turli pragmatik funksiyalarni bajaradi: ekspressiv, emotsional, baholovchi va boshqalar.
3. **Kontekstual tamoyil.** Bu tamoyil frazeologik birliklarni ma'lum bir kontekstda o'rganishni ko'zda tutadi. A.N.Baranov va D.O.Dobrovolskiyning fikricha, "Frazeologik birliklarning pragmatik ma'nosi ularning qo'llanilish kontekstiga bog'liq bo'ladi". (Baranov A.N., Dobrovolskiy D.O., 2008, 78)

4. **Lingvokulturologik tamoyil.** Bu tamoyil frazeologik birliklarni milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganishni nazarda tutadi.

Lingvopragmatik yondashuv frazeologik birliklarni quyidagi jihatlardan o'rganishga imkon beradi:

1. **Frazeologik birliklarning pragmatik potentsiali.** Bu frazeologik birliklarning muloqot jarayonida ma'lum bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatidir. I.V.Arnold ta'kidlaganidek, "Frazeologik birliklar kuchli pragmatik potentsialga ega bo'lib, ular so'zlovchining emotsional holatini, uning baholashini va munosabatini ifodalaydi". (Arnold I.V., 2002, 167)
2. **Frazeologik birliklarning illokutiv kuchi.** Bu frazeologik birliklarning ma'lum bir nutq aktini amalga oshirishdagi roli. Frazeologik birliklar ham turli illokutiv aktlarni ifodalashda ishtirok etadi: buyruq, iltimos, tavsiya, tahdid va boshqalar.
3. **Frazeologik birliklarning perlokutiv effekti.** Bu frazeologik birliklarning tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siri.
4. **Frazeologik birliklarning presuppozitsiyasi.** Bu frazeologik birliklar konotativ ma'noga ega bo'ladi. Frazeologik birliklarni to'g'ri tushunish uchun tinglovchi ma'lum bir lingvistik va ekstralingvistik bilimga ega bo'lishi kerak.

Frazeologik birliklar ekspressiv-emotsional xususiyatlarga ega bo'lib, so'zlovchining emotsional holatini, uning baholashini va munosabatini ifodalaydi. N. Mahmudov ta'kidlaganidek, "Frazeologik birliklar tilda emotsionallikni ifodalashning eng muhim vositalaridan biridir". (Mahmudov N., 1993, 27)

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning ekspressiv-emotsional xususiyatlarini A.Mamatov chuqur o'rgangan. Uning fikricha, "Frazeologik birliklar o'z emotsional-ekspressiv xususiyatlari bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi va bu xususiyatlar ularning pragmatik potentsialini belgilaydi". (Mamatov A., 2005, 42)

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini B.Yo'ldoshev o'rgangan. Uning fikricha, "Frazeologik birliklar xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligini, uning dunyoqarashini, qadriyatlarini va urf-odatlarini aks ettiradi". (Yo'ldoshev B., 2013, 72)

Frazeologik birliklarni lingvopragmatik jihatdan tadqiq etish usullari til birliklari ma'nosini kontekst, nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad bilan bog'liq holda o'rganishga asoslanadi. Bu usullar zamonaviy tilshunoslikning pragmalingvistik yo'nalishi doirasida shakllangan bo'lib, frazeologik birliklarning faqat leksik-semantik xususiyatlarini emas, balki ularning real nutq jarayonidagi funksional-kommunikativ jihatlarni ham tadqiq etishga imkon beradi.

Lingvopragmatik yondashuv til birliklarining qo'llanilishini kommunikantlarning maqsadi, ijtimoiy munosabatlari, presuppozitsiyalari, nutq strategiyalari va boshqa ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Bu o'z navbatida frazeologik birliklarning nutqda bajaradigan illokutiv va perlokutiv funksiyalari, ularning turli kommunikativ vaziyatlarda emotsional-ekspressiv ta'sirini, shuningdek kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi.

Zoonim komponentli frazeologik birliklar muayyan tilda nafaqat hayvonlarning hayoti va ularning insonlar bilan bog'liq jihatlarini ifodalash vositasi, balki xalq tafakkuri, ma'naviy va moddiy madaniyatining ifodachisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Har bir xalqning hayvonot olamiga bo'lgan munosabati, ular bilan bog'liq an'analari va e'tiqodlari frazeologik birliklarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois turli tillarda bir xil hayvon nomi ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklar o'xshash yoki butunlay qarama-qarshi semantik ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu esa har bir xalqning lingvomadaniy tafakkuridagi farqlar bilan bog'liq. (Muzaffarova F., 2025, 56)

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni diskurs tahlil usuli bilan o'rganishni N.Mahmudov amalga oshirgan. Uning fikricha, "Diskurs tahlil usuli frazeologik birliklarning muloqot jarayonidagi vazifalarini, ularning pragmatik potensialini va ta'sirini o'rganishga imkon beradi". (Mahmudov N., 2014, 76)

Frazeologik birliklarning nutq aktlarida qo'llanilishini o'rganish orqali ularning kommunikativ-pragmatik potensialini, kontekstga bog'liq holda ma'no o'zgarishlarini va pragmatik funksiyalarini chuqurroq anglash mumkin. Bu esa til birliklarining nafaqat struktural-semantik, balki kommunikativ-pragmatik jihatlarini ham kompleks tarzda tadqiq etishga imkon beradi.

1. Rerezentativlar (Assertivlar)

Rerezentativ nutq aktlari so'zlovchining biror narsa haqidagi ishonchi, fikri yoki xulosasini ifodalaydi. Bu turdagi nutq aktlarida so'zlovchi voqelik haqida ma'lumot beradi va uning to'g'ri yoki noto'g'riligiga javobgar bo'ladi. Ular haqiqatni tasdiqlab yoki inkor etib, dunyoni til orqali tasvirlashga qaratilgan. Masalan: "*Ish pachovaroq bo'ldi*" (ish yaxshi bo'lmagani haqida axborot berish), "*Bu masalada u tulkining o'zi*" (kimningdir ayyor ekanligi haqida tasdiqlash).

2. Direktivlar

Direktiv nutq aktlari so'zlovchining tinglovchini biror harakatni bajarishga undash, majburlash yoki taklif qilishini ifodalaydi. Bu turdagi nutq aktlarida so'zlovchi tinglovchidan ma'lum bir harakatni bajarishni so'raydi, buyuradi yoki maslahat beradi. Masalan: "*Quloqni ding qilib tingla*" (diqqat bilan tinglashni buyurish), "*Oyog'ingni qo'lingga olib yugur*" (tez harakat qilishni buyurish).

3. Komissivlar

Komissiv nutq aktlari soʻzlovchining kelajakda biror harakatni bajarish majburiyatini olishini ifodalaydi. Bu turdagi nutq aktlarida soʻzlovchi oʻz zimmasiga maʼlum bir majburiyat oladi yoki vaʼda beradi. Masalan: “*Yerga ursang, koʻkka sapchidi*” (ishonchli vaʼda berish), “*Qoʻl berib, qoʻlitiq ochmoq*” (yordam berishga vaʼda berish).

4. Ekspressivlar

Ekspressiv nutq aktlari soʻzlovchining hissiy holatini va voqealarga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Bu turdagi nutq aktlarida soʻzlovchi oʻzining tuygʻularini, emotsional munosabatini bildiradi. Masalan: “*Jon deganim jon berdi*” (minnatdorchilik bildirish), “*Boshga koʻtarmoq*” (maqtash, hurmat koʻrsatish).

5. Deklarativlar

Deklarativ nutq aktlari soʻzlovchining nutqi orqali ijtimoiy voqelikni oʻzgartirishini ifodalaydi. Bu turdagi nutq aktlarini bajarish uchun odatda soʻzlovchi maʼlum ijtimoiy mavqega ega boʻlishi kerak. Deklarativ nutq aktlari aytilishi bilan real dunyoda oʻzgarish yuz beradi. Masalan: “*Sizni oq yoʻl bilan tabriklaydi*” (maʼlum bir holatni eʼlon qilish), “*Gʻiybatga chek qoʻymoq*” (biror vaziyatga chek qoʻyish, tugatish).

Har bir nutq akti turida frazeologik birliklar alohida pragmatik funksiyalar bajaradi va soʻzlovchining kommunikativ maqsadini yetkazishda muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbek tilshunosligida frazeologik birliklarning stereotiplar bilan bogʻliqligini B.Yoʻldoshev tadqiq etgan. Uning fikricha, “Oʻzbek tili frazeologik birliklari koʻpincha stereotiplar asosida shakllanadi va bu stereotiplar oʻzbek xalqining dunyoqarashini aks ettiradi”. (Yoʻldoshev B., 2017, 62)

Masalan, zoonimlardagi stereotiplar qadimgi miqlar, xalq ertaklari, anʼanalari va diniy tasavvurlar asosida shakllangan.

Zoonim komponentli FBlardagi stereotiplarning tasnifi:

1. Hayvonlarning tashqi koʻrinishi bilan bogʻliq stereotiplar

A.V.Kunin qayd etganidek, “hayvonlarning tashqi koʻrinishi u yoki bu stereotiplarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan”. Masalan:

Boʻridek ozgʻin - juda ozgʻin, oriq odamga nisbatan qoʻllaniladi.

Buqadek baquvvat - jismoniy kuchga ega boʻlgan odam haqida.

Fildek besoʻnaqay - harakatlari qoʻpol, besoʻnaqay odam haqida.

2. Hayvonlarning xulq-atvori bilan bogʻliq stereotiplar

Tulkidek ayyor - makkor, hiylagar odamga nisbatan ishlatiladi. Masalan: “U tulkidek ayyor, har qanday vaziyatdan oʻz manfaati uchun foydalana oladi.”

Qo'ydek yuvosh - bo'ysunuvchan, itoatkor odam haqida. Masalan: "Uning o'g'li qo'ydek yuvosh, hech qachon qarshilik bildirmaydi."

Tovuq miya (xotirasi kuchsiz) - es-hushini tez yo'qotadigan odam haqida.

3. *Hayvonlar bilan bog'liq xalq tajribasi asosidagi stereotiplar*

It vafosi - sadoqat va vafodorlik ma'nosida. Masalan: "Do'stlik it vafosidek bo'lishi kerak."

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi - qo'rquv tufayli ishni boshlamaslik haqida.

Ot tepkisini ot ko'taradi - qiyinchiliklarni boshdan kechirganlar boshqalarning dardini tushunishi haqida.

4. *Milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi zoonim komponentli FBlar*

N.D.Arutyunova ta'kidlaganidek, "har bir til o'z frazeologik tizimida milliy dunyoqarashni aks ettiradi" (Arutyunova D.N., 1988, 44). Masalan:

Bo'rini bo'ri demang, qo'yini qo'y demang (O'zbek tiliga xos) - birovni oldindan yomon yoki yaxshi deb baholamaslik haqida.

Quyvon yuragini yemoq - qo'rqib ketmoq. Masalan: "Bu xabarni eshitib, quyvon yuragini yedi."

Ilon - zaharxanda, achchiq til odam haqida.

5. *Universal (ko'p tillarda uchraydigan) zoonim stereotiplar*

Arslon yuragi - jasur, mard odam haqida. Masalan: "U arslon yurakli jangchi."

Chumolidek mehnatsevar - tinim bilmaydigan ishchan odam haqida.

Qoplon chaqqonligi - juda tez, epchil harakat haqida.

Zoonim komponentli frazeologik birliklarda stereotiplar tizimi til egalarining milliy dunyoqarashini aks ettiradi. Zoonim komponentli FBlar milliy madaniyat ko'zgusi hisoblanib, tildagi antroposentrik yo'nalishni ko'rsatadi.

Zoonim komponentli FBldagi stereotiplar quyidagi muhim vazifalarni bajaradi: Ijtimoiy tajribani tizimlashtirish, milliy qadriyatlarni ifodalash, dunyoni idrok etish modellarini shakllantirish, madaniy identifikatsiyada ishtirok etish.

To'liq ekvivalent frazeologik birliklar har ikki tilda ham bir xil obrazli asosga, bir xil ma'noga va bir xil tuzilishga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "Asalaridek mehnatsevar" va ingliz tilidagi "*As busy as a bee*" frazeologik birliklari to'liq ekvivalent hisoblanadi, chunki ular bir xil ma'noga ega va bir xil vaziyatlarda qo'llaniladi. Qisman ekvivalent frazeologik birliklar esa ba'zi farqlarga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "*igna bilan quduq qazigandek*" frazeologik birligi ingliz tilidagi "*like looking for a needle in a haystack*" (xashak ichidan ignani qidirgandek) frazeologik birligi bilan qisman ekvivalent hisoblanadi. Ular bir xil ma'noga ega, lekin turlicha obrazli asosga ega.

Umarxo‘jayev o‘z tadqiqotida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning konnotativ ma‘nolarini ham qiyoslab o‘rgangan. Uning ko‘rsatishicha, ba‘zan frazeologik birliklar denotativ ma‘no jihatidan o‘xshash bo‘lsa ham, konnotativ ma‘no jihatidan sezilarli farqlar bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning tillararo qo‘llanilishida va tarjimasida muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun frazeologik birliklarning ekvivalentligini o‘rganishda ularning konnotativ ma‘nolariga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Frazeologik birliklarning ekvivalentligini o‘rganish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan bu masalani o‘rganish turli tillarning frazeologik tizimidagi universal va milliy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Amaliy jihatdan esa frazeologik birliklarning ekvivalentligini bilish tarjima amaliyotida, chet tillarni o‘qitishda va lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. A.V.Kunin ta‘kidlaganidek, “Frazeologik birliklarning to‘liq ekvivalentligi ularning ma‘no, grammatik tuzilish va stilistik xususiyatlarining to‘liq o‘xshashligini ko‘zda tutadi”. (Kunin A.V., 1972, 152)

Frazeologik birliklarning ekvivalentligi masalasi qiyosiy tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Bu masalani o‘rganish turli tillardagi frazeologik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, tillar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni o‘rganish, shuningdek, tarjima nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish uchun zarur. Ekvivalent frazeologik birliklar odatda umumbashariy tajriba, madaniy aloqalar yoki tillarning genetik qarindoshligi natijasida yuzaga keladi.

Frazeologik birliklarning ekvivalentligini aniqlashda ularning semantikasi, tarkibiy tuzilishi, stilistik bo‘yog‘i, qo‘llanish doirasi va pragmatik xususiyatlari hisobga olinadi. Ba‘zi frazeologik birliklar til sohiblarining dunyoqarashi, madaniyati va tajribasiga bog‘liq bo‘lgani uchun, ularning ekvivalentini boshqa tillarda topish qiyin bo‘ladi. Bu esa frazeologik birliklarning tillararo qiyosiy tadqiqini yanada qiziqarli va dolzarb qiladi.

Frazeologik birliklarning tillararo nomuvofiqligi ularning ma‘no, grammatik tuzilish va stilistik xususiyatlarining farqlanishini ko‘zda tutadi. A.V.Kunin ta‘kidlaganidek, “Frazeologik birliklarning nomuvofiqligi ularning ma‘no, grammatik tuzilish va stilistik xususiyatlarining farqlanishini ko‘zda tutadi” (Kunin A.V., 1972, 154). A.V.Kunin frazeologik birliklarning nomuvofiqligini o‘rganish tillarning frazeologik tizimidagi milliy o‘ziga xoslikni ochib berishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Uning ta‘kidlashicha, frazeologik birliklarning nomuvofiqligi ko‘p hollarda xalqlarning madaniyati, tarixiy tajribasi, turmush tarzi va dunyoqarashidagi farqlar bilan bog‘liq.

Frazeologik birliklarning nomuvofiqligi masalasi qiyosiy tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega. Bu masalani o'rganish turli tillardagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tillar o'rtasidagi madaniy farqlarni o'rganish, shuningdek, tarjima nazariyasi va amaliyotida frazeologik birliklarni bir tildan boshqa tilga o'girishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun muhim. Nomuvofiq frazeologik birliklar odatda har bir xalqning o'ziga xos tarixiy tajribasi, madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashi natijasida yuzaga keladi.

Frazeologik birliklarning nomuvofiqligini aniqlashda ularning semantikasi, tarkibiy tuzilishi, stilistik bo'yog'i, qo'llanish doirasi va pragmatik xususiyatlari hisobga olinadi. Ba'zi frazeologik birliklar til sohiblarining milliy o'ziga xos tajribasini aks ettirishi tufayli boshqa tillarda ularning muqobilini topish deyarli mumkin emas. Bu esa frazeologik birliklarning nomuvofiqligi masalasini frazeologiya sohasining dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning nomuvofiqligini A.Mamatov chuqur tadqiq etgan. Uning fikricha, "O'zbek va rus tillari frazeologik birliklarining nomuvofiqligi ularning ma'no, grammatik tuzilish va stilistik xususiyatlarining farqlanishiga bog'liq" (Mamatov A., 2019, 83). A.Mamatov o'zbek va rus tillari frazeologik birliklarini qiyoslab, ularning nomuvofilik darajasini aniqlagan va guruhlarga ajratgan.

Mamatovning tadqiqotlarida nomuvofiq frazeologik birliklarning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

1. ma'no jihatidan nomuvofiq frazeologik birliklar;
2. grammatik tuzilish jihatidan nomuvofiq frazeologik birliklar;
3. stilistik xususiyatlar jihatidan nomuvofiq frazeologik birliklar.

Ma'no jihatidan nomuvofiq frazeologik birliklarga o'zbek tilidagi "*ko'ngli joyiga tushmoq*" va rus tilidagi "*отлеглоотсердца*" (yurakdan narsa tushgandek bo'lmoq) frazeologik birliklari misol bo'ladi. Ular bir xil vaziyatda qo'llanilsa ham, turlicha obrazli asosga ega. Grammatik tuzilish jihatidan nomuvofiq frazeologik birliklarga o'zbek tilidagi "*qo'li ochiq*" (fe'l + sifat) va rus tilidagi "*человекширокойдушой*" (ot+ sifat + ot) frazeologik birliklari misol bo'ladi. Stilistik xususiyatlar jihatidan nomuvofiq frazeologik birliklarga esa o'zbek tilidagi "*tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq*" (neytral) va rus tilidagi "*остатьсяясном*" (so'zlashuv uslubiga xos) frazeologik birliklari misol bo'ladi.

A.Mamatov o'z tadqiqotida yana shuni ta'kidlaydiki, o'zbek tilidagi ba'zi frazeologik birliklarning rus tilida umuman muqobili yo'q, chunki ular milliy o'ziga xos tajribani aks ettiradi. Masalan, "*ko'rpangga qarab oyoq uzat*", "*to'ychasini topganlar*", "*qozon osar*" kabi frazeologik birliklarning rus tilida frazeologik

muqobili mavjud emas. Bu esa o‘zbek xalqining o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlar va an‘analarini aks ettiruvchi frazeologik birliklardir.

M.Umarxo‘jayev o‘zbek tilidagi ba‘zi frazeologik birliklarning ingliz tilida muqobili yo‘qligini, ingliz tilidagi ba‘zi frazeologik birliklarning esa o‘zbek tilida muqobili yo‘qligini ko‘rsatib bergan. Masalan, o‘zbek tilidagi “*belbog‘ bog‘lamoq*”, “*non sindirmoq*”, “*chillali qizlar*” kabi frazeologik birliklarning ingliz tilida frazeologik muqobili yo‘q. Ingliz tilidagi “*to rain cats and dogs*” (mushuk va itlarni yog‘dirmoq – jala quymoq), “*to cook one’s goose*” (g‘ozni pishirmoq – ishini bitirmoq, o‘ldirmoq), “*to be all thumbs*” (hammasi bosh barmoq bo‘lmoq – qo‘pol, chaqqon emas) kabi frazeologik birliklarning esa o‘zbek tilida frazeologik muqobili yo‘q.

XULOSA

Frazeologik birliklarning nomuvofiqligini o‘rganish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan bu masalani o‘rganish turli tillarning frazeologik tizimidagi milliy o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Amaliy jihatdan esa frazeologik birliklarning nomuvofiqligini bilish tarjima amaliyotida, chet tillarni o‘qitishda va lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklarni tadqiq etishdagi lingvopragmatik yondashuv ularni muloqot jarayonida qo‘llanilishi, ularning muloqot maqsadi va vaziyatiga bog‘liqligi, so‘zlovchining niyati va tinglovchiga ta‘sirini o‘rganishga imkon beradi. Bu yondashuv frazeologik birliklarni nazariy jihatdan o‘rganish bilangina cheklanmay, ularning amaliy qo‘llanilishini ham tahlil qiladi.

Lingvopragmatik yondashuv frazeologik birliklarning quyidagi jihatlarini o‘rganishga imkon beradi: ularning pragmatik potentsiali, illokutiv kuchi, perlokutiv effekti va presuppozitsiyasi. Shuningdek, bu yondashuv frazeologik birliklarning ekspressiv-emotsional, baholovchi va milliy-madaniy xususiyatlarini ham o‘rganadi.

Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va lingvokognitiv aspektlari ham muhim ahamiyatga ega. Ular xalqning milliy dunyoqarashini, madaniyatini va qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, ular kontseptlarning ifodalanishida, metaforik modellar va stereotiplarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarni tadqiq etishdagi lingvopragmatik yondashuv ularning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o‘rganishga imkon beradi. Bu yondashuv frazeologik birliklarning til tizimidagi o‘rni, ularning muloqot jarayonidagi vazifasi va ta‘sirini, shuningdek, ularning milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlarini o‘rganishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Morris, Ch. *Foundations of the Theory of Signs*. – Chicago: University of Chicago Press, 1938. – P. 6
2. Safarov, Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 28
3. Baranov, A.N., Dobrovol'skiy, D.O. *Aspekty teorii frazeologii*. – Moskva: Znak, 2008. – S. 78
4. Арнольд И.В. *Стилистика современного английского языка: стилистика декодирования*. – Москва: Флинта, 2002. – с. 167
5. Mahmudov, N. *O'zbek tilida frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 27
6. Mamatov, A. *O'zbek tili frazeologizmlarining ekspressivligi va uning lingvistik mexanizmlari*. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 42
7. Yo'ldoshev, B. *O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari*. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 72
8. Mahmudov, N. *O'zbek tili diskursining pragmatik xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 76
9. Yo'ldoshev, B. *O'zbek frazeologizmlarida stereotiplar*. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 62
10. Арутюнова, Н. Д. (1988). *Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт*. Москва: Наука.
11. Кунин, А. В. *Фразеология современного английского языка*. – Москва: Международные отношения, 1972. – С. 152–154.
12. Mamatov, A. *O'zbek va rus tillari frazeologiyasining qiyosiy tahlili*. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 83
13. Muzaffarova, Farangiz. "Ingliz Va o'zbek Tillaridagi Zoonim Komponentli Frazeologizmlarning Milliy-Madaniy Hususiyatlari". *Lingvospektr*, vol. 3, no. 1, Mar. 2025, pp. 55-60,

REFERENCES

1. Morris, Ch. (1938). *Foundations of the Theory of Signs*. Chicago: University of Chicago Press, p. 6.
2. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalinguistics*. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, p. 28.
3. Baranov, A. N., Dobrovolsky, D. O. (2008). *Aspects of the Theory of Phraseology*. Moscow: Znak, p. 78.
4. Arnold, I. V. (2002). *Stylistics of the Modern English Language: Decoding Stylistics*. Moscow: Flinta, p. 167.

5. Mahmudov, N. (1993). *Emotional and Expressive Characteristics of Phraseological Units in the Uzbek Language*. Tashkent: Fan, p. 27.
6. Mamatov, A. (2005). *Expressiveness of Uzbek Phraseological Units and Its Linguistic Mechanisms*. Tashkent: Fan, p. 42.
7. Yoʻldoshev, B. (2013). *Issues of Uzbek Phraseology and Phraseography*. Tashkent: Fan, p. 72.
8. Mahmudov, N. (2014). *Pragmatic Features of Uzbek Discourse*. Tashkent: Fan, p. 76.
9. Yoʻldoshev, B. (2017). *Stereotypes in Uzbek Phraseological Units*. Tashkent: Fan, p. 62.
10. Arutyunova, N. D. (1988). *Types of Linguistic Meaning: Evaluation. Event. Fact*. Moscow: Nauka, Kunin, A. V. *Phraseology of the Modern English Language*. Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya, pp. 152–154.
11. Mamatov, A. (2019). *A Comparative Analysis of Uzbek and Russian Phraseology*. Tashkent: Fan, p. 83.
12. Muzaffarova, Farangiz. (2025). “National and Cultural Features of Phraseological Units with a Zoonymic Component in English and Uzbek.” *Lingvospektr*, vol. 3, no. 1, March pp. 55–60.